

**O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA RASSOM
ATAXAN ALLABERGANOV IJODINING O‘RNI**

Xujaniyozov Rashid Kushnazarovich

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Chizmatasvir kafedrasini mudiri

Annotasiya. Maqolada yurtimizda tasviriy san’atda, xususan rangtasvir san’ati hamda badiiy ta’lim tizimida munosib o‘rniga ega bo‘lgan taniqli rangtasvirchi rassom, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi faxriy a’zosi O‘zbekiston tasviriy san’atida muhim iz qoldirgan Ataxan Allaberganov ijodi san’atshunoslik tadqiqoti nuqtai nazaridan yoritilgan. Jumladan, rassomning rangtasvir san’ati va badiiy ta’limdagi roli, ijodiy izlanishlarida uslublarning keng ko‘lamligi hamda yuqori va chuqur ijrochilik mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, realistik an’analari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, rangtasvir, rassom, uslub, obraz, kolorit, gamma, kompozitsiya, avangard, etnografiya, grizayl, plastik, stilistik.

KIRISH

Tasviriy san’at o‘z mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli san’at turlaridan hisoblanadi. Bu yo‘nalishda ijod qilib kelayotgan rassomlar o‘z tuyg‘ulariyu, ichki kechinmalarini turli rang surtmalari orqali tasvirda namoyon etadi.

O‘z tuyg‘ularini qalb qo‘ri orqali mo‘yqalamda yorqin ifoda eta olgan mahoratli ijodkor, Xorazm farzandi Ataxan Allaberganov to‘g‘risida ham shunday


deyish mumkin. Mazkur tadqiqot ishi ham aynan Ataxan Allabergenov ijodiy asarlaridagi izlanishlar va tasviriy san’atdagi dolzarb ahamiyatiga bag’ishlangan.

Ataxan Allabergenov – rangtasvirchi rassom, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi faxriy a’zosi. Rassom 1947 yil 17 noyabrda Tashovuz shahrida tug‘ilgan. 1974 yilda A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent Davlat Teatr va Rassomlik instituti (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti)ning “Teatr-saxna bezagi san’ati” bo‘limini tamomlaydi va shu institutda o‘qituvchi bo‘lib o‘z faoliyatini davom ettiradi.

Ijodiy faoliyatini badiiy ta’lim bilan chambarchas bog‘lagan ustoz musavvir Ataxan Allabergenov asarlarida manzara, portret, tarixiy shaxslar obrazining talqini, janrli kompozitsiya asosiy o‘rinni egallaydi.

Ataxan Allabergenov realistik tamoyillar asosida dastgohli rangtasvir va garafikada samarali ijod etadi. Rassom asarlari badiiy talqinning professionalligi, shakllardan nostandart foydalanish, rang surtmalarining o‘tkir va yorqinligi, kompozitsiyaning umumiy olinishi bilan ajralib turadi. Uning ijodida serquyosh zaminning sirli dunyosi, xalqimizning boy tarixi, urf-odatlar, tanti va mehnatkash inson obrazlari, tarixdan so‘zlovchi me’moriy inshootlaru, eski ko‘chalarni va ona yurtning betakror tabiat tasvirlarini ko‘ramiz. Ayniqsa, “Xiva” turkum asarlarida qadimiy shahar manzarasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif tarixiy shaharning ma’naviy makoniga e’tibor qaratadi, hayotdan olingan har bir epizod, hatto mayda detal ham rassom nazaridan chetda qolmaydi. Unda eski ko‘chalar, loy suvoqli paxsa uylar, qadimiy me’moriy inshootlar, tor ko‘chadan iz qoldirib ketayotgan ot aravalar, gavjum bozorlar, mahaliy aholining kundalik turmush tarzini yorqin ifoda etishga erishgan.

Shahar va ko‘chalarni turli seanslarda tasvirlash, rang surtmalarining uyg‘unligi, nur-soya bilan to‘yinganlik asarlariga o‘zgacha maftunkorlik baxsh etgan. Bu esa ko‘hna voha jozibasini haqqoniy tasvirlashga zamin yaratgan.



Ataxan Allabergenov o‘z ijodida manzara janriga ko‘p marotaba murojaat etadi. Rassom tomonidan yaratilgan manzaralarda ona zaminga bo‘lgan muhabbat yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning “So‘qoq”, “Qishloq”, “Eski shahr”, “Qish”, “Oqshom”, “Bahor” kabi asarlari keng qamrovli ko‘rinishga ega bo‘lib, ijodkor uslubining yondashuvi namoyon bo‘lgan. Xususan, “So‘qoq” (1995) nomli manzara janrida ishlangan kartinasida Toshken viloyatida joylashgan so‘lim go‘shalardan So‘qoq qishlog‘ining tabiati aks etgan.

Rassomning o‘ziga xos uslubida ishlangan ushbu kartina gorizantal kompozitsitada bo‘lib, umumiy maydonni egallagan. Kartina issiq va sovuq rang surtmalaridan mahorat bilan foydalangan holda rangtasvirona ishlangan. Nur-soyani unumli qo‘llash orqali jonli tabiat manzarasini aks ettirgan.

Kompozitsiya markazida keng toshli yo‘l. Kuz faslidan darak berib turgan sarg‘ish, och yashil va alvon tusdagi daraxtlar o‘lka tarovatini yanada oshirgan. Qishloq ko‘rinishining me‘moriy manzarasi yo‘l yoqalab joylashgan pastqam tom, loy suvoqli uylar orqali ifoda etilgan. Olislarda yastanib yotgan to‘glar va musaffo osmon asarga tugal ko‘rinish baxsh etgan.



Ataxan Allabergenov ijodida turli xil ko‘rinishga ega insonlar portretini ishlash keng qamrovlidir. “Ustalar”, “Kulol”, “To‘quvchi”, “Xivalik ota”, “Cho‘pon”, “Ona”, “Chol”, “Ishchi ayol”, “Misgar usta”, “Donishmand” va boshqa shu kabi qahramonlarda sodda, mehnatkash, qat‘iyatli va ochiq xarakterga ega inson obrazlari tasvirlangan.

Mahoratli rassom nigohi juda o‘tkir bo‘ladi. U oddiy inson qarashi orqali ilg‘ay olmaydigan ayrim jihatlarni teran his etadi va tasvirda yorqin ifoda etadi. Bu qarashlar rassom ijodining “Xoljon Momo” (2000) namoyon portretida yorqin bo‘lgan. Asar 140x94 mato moybo‘yoq, joylashuviga ko‘ra vertikal kompozitsiyada.

Yoshi ancha ulug‘ keksa momo qo‘llarini jipslashtirib tizzalariga tayanib o‘tirgan holatda tasvirlangan. Qo‘llari va yuzlaridagi sezilib turgan ajinlar uning uzoq yillar davomidagi mehnati, mashaqqatlari, turli xil sinovlardan mardonavor yengib o‘tgan tashivshlariyu, kechinmalardan so‘zlaydi. Momo egnida oddiygina kiyimlar, boshida esa oq ro‘mol. Ro‘mol chetlaridan biroz to‘zg‘igan oq sochlari ko‘rinib turbidi. Momo egnidagi libos ranglarining rassom tomonidan aniq berilishi, keksalik belgisini yanada sezilarli ochib bergan. Asarda momo nigohi tomoshabinga qaratilgan bo‘lib, anchayin o‘ychan. Bu o‘ylar momoning uzoq o‘tmishidan darak. Musavvir tomonidan yaratilgan ushbu “Xoljon momo” porterti talqinida keksa

momoning barcha tengdoshlariyu, zaxmatkash xorazimlik ayollarning umumlashma obrazi talqin etilgan.



Ataxan Allabergenov ijod olamida o‘z dasxatiga ega bo‘lgan rassomlardan. Rassom tabiatdan olgan taasurotlarini his tuyg‘ulari orqali ifoda etishga erishgan. Ataxan Allabergenov yetuk rangtasvir ustasi bo‘lishi bilan bir qatorda, mohir pedagog ham edi. Ustoz rassom shogirdlari bugungi kunda o‘zbek rangtasvirining yuksalishida samarali ijod etib kelishmoqda. Ataxan Allabergenov ijodi yuksak baholanib “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoni (1981), “Mehant shuhrati” ordeni (2000) bilan taqdirlangan.

METODLAR

Maqola mavzusi doirasidagi ma‘lumotlarni to‘plash va shakllantirishda bugungi globallashuv davrining siyosiy, ijtimoiy-tarixiy omillari va badiiy jarayon xususiyatlari ta‘sirida shakllangan O‘zbekiston tasviriy san‘ati, xususan rangtasvir san‘ati hamda undagi rassom Ataxan Allabergenov ijodiy asarlaridagi izlanishlar va tasviriy san‘atdagi dolzarb ahamiyatini tahlil qilish hamda bu borada amalga

oshirilayotgan ishlarni o‘rganishdagi tarixiy-madaniy, etnologik, tarixiy-semantik, qiyosiy tahlil, badiiy tahlil, sintez, o‘rganish, umumlashtirish, tasniflash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Ijod olamida shunday xilma-xil iste’dod egalari borki, o‘zi yashagan muhit chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi, boshqasi esa bu muhitga sig‘maydi, va o‘ziga xos badiiy estetik olam izlaydi. Ayrimlari esa o‘tmish zamonlar, armonlar ruhini o‘z dunyosi bilan bog‘lab, bugungi hayot ummonida suzadi, bazi ijodkorlar hayol parvozi va tafakkur qanotiga kuch berib, orzular, maqsadlar yo‘lini tutadi. Dunyoda biron narsa boshqasini takrorlamaganidek, san’at sohasida qanchalik ko‘p iste’dod sohiblari bo‘lmasin birining o‘rini ikkinchisi to‘ldira olmaydi. O‘z tuyg‘ularini qalb qo‘ri orqali mo‘yqalamda yorqin ifoda eta olgan mahoratli ijodkor Ataxan Allabergenov to‘g‘risda ham shunday deyish mumkin. Ataxan Allabergenov realistik tamoyillar asosida dastgohli rangtasvir va garafikada samarali ijod etadi. Rassom asarlari badiiy talqinning professionalligi, tasvir shakllarining o‘zgachaligi, rang surtmalarining o‘tkir va yorqinligi, issiq gammaning ustunligi, pastel ranglardan mahorat ila foydalana olishlik, kompozitsiyaning umumiy talqini, nursoyaga boyligi asarlarida impersionizmga xos monera va umumlashma rangtasvirda ishlanishi bilan o‘ziga xosdir. Ijodkorning rangtasvir asarlarida manzara, portret, tarixiy shaxslar obrazining talqini, janrli kompozitsiya asosiy o‘rinni egallaydi. Tomoshabin ularda serquyosh zaminning sirli dunyosi, xalqimizning boy tarixi, urfodatlar, tanti va mexnatkash inson obrazlari, tarixdan so‘zlovchi me’moriy inshootlari, eski ko‘chalarni va ona yurtning betakror tabiat tasvirlarini ko‘radi.

Rassom ijodining asosiy qismini Xorazm vohasi va umuminsoniyat durdonalaridan bo‘lgan ochiq osmon ostidagi muzey deya atalmish ko‘hna Xiva shahridagi qadimiy yodgorliklar, qal’a, saroy, tor ko‘chalar, uning atrofidagi qishloqlar va ulardagi odamlarning turmush tarzi, tabiati, fasllar almashinuvi, ko‘hna Urganchdagi yodgorliklar, Qoraqum va Qizilqum bag‘rlaridagi barxanlar,

uning kecha va kunduzdagi, yil fasllarida ko‘rinishlarini tasvirlangan ko‘p yillar davomida yaratilgan turkum rangtasvir asarlari tashkil etadi.

“Xiva” turkumidan, “Xo‘ja minor”, “Kalta minor”, “Ota darvoza”, “Xiva Choshgoh”, “Eski shahar”, “Tor ko‘cha”, “Xivada qish”, “Sokinlik”, “Sayotxon bog‘i”, “Xiva oqshomi”, “Xiva yozi”, “Quyoshli kun”, “Qoraqum barxanlari”, “Ko‘hna Urganch navolari”, “Ko‘hna Urganch sirlari”, “Shaxmatchi”, “Avtoportret”, “Somonchi”, “Kulol”, “Xivalik ayol”, “Urganchliklar”, “Afandi”, “Malika”, “Urganch bugun”, “Xorazimlik qariya”, “Orom”, “Dala ishlari”, “Otlar kechuvida”, “Polvon arig‘i bo‘yida”, “Tongi suhbt”, “Amuni tinglab”, “Matonat” kabi rangtasvir va portret asarlari o‘zining plastik yechimi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiyaning mukammalligi, xarakterliligi, bir vaqtning o‘zida ham sodda, ham murakkabliligi bilan tomoshabinni rassom anglagan va boshqalarga ham yetkazmoqchi bo‘lgan olam va odam mohiyatining teranroq his qilishga undaydi.

Ataxan Allabergenovning “Xiva” va “Ko‘hna Urganch” turkum asarlarida qadimiy shahar manzarasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif tarixiy shaharning ma’naviy makoniga e’tibor qaratadi, hayotdan olingan har bir epizod, hatto mayda detal ham rassom nazaridan chetda qolmaydi. Unda eski ko‘chalar, loy suvoqli paxsa uylar, qadimiy me’moriy inshootlar, tor ko‘chadan iz qoldirib ketayotgan ot aravalar, gavjum bozorlar, mahaliy aholining kundalik turmush tarzini yorqin ifoda etishga erishgan.

U Xiva, Urganch shahar ko‘chalarini tasvirlab turkum asarlar ishlagan. Eski shahar ko‘chalari bir xilda “ko‘cha” deb atalsa-da, ammo bu turkum asarlarda ular bir-biridan nafaqat shakli yoki rang jilvasi, balki o‘ziga xos ruhiy makon sifatida ham farqlanadi, ayni payitda bir-birini boyitadi. Bir qarashda, nimrangda, akvarelning nozik evrilishida bo‘y ko‘rsatgan ko‘cha manzaralari hayotiy unsurlarga boy bo‘lishi barobarida rassom qalb ko‘zguna aks sadosi hamdir. Moziy hidi kelib turadigan bu ko‘chalar qiyofasida samimiyat balqib turgan yoqimli bir yorqinlik sadolari taralib turadi. Biz bunday iliq yog‘dularni “Islomxo‘ja minorasi”da ham, “Eski masjid” yoki “Eski shahar” turkumida ham ko‘ramiz.

“Guldursin”dagi ulug‘vorlik, “Ko‘hna Urganch”dagi mahzun sirlilik kishini o‘ziga tortadi. U tasavvuridagi manzaralarni va hayotiy unsurlarni turli shakllarda, o‘ziga xos kompozitsiyalarda berishga intiladi.

Rassomning “Ko‘hna Urganch” (2005) nomli grafik asari kompozitsion qurilish jihatidan shoirona lirik kayfiyatni uyg‘otadi. Asarda murakkab, ba’zida sodda shakl va ko‘rinishlar vaqt va zamon uyg‘unligi orasida o‘ziga xos fazoviy bog‘liqlikni vujudga keltirgan. Asarda o‘ziga xos rang tuslarni qo‘llagan holda, bepayon kengliklar zamirida olis-olislardan Ko‘hna Urganchning tarixiy shahar manzarasi namoyon bo‘lgan. Olisdagi me’moriy manzarada Urganch minorasi, maqbara, gumbaz va peshtoqlari tasvirlangan.

Rassom asarlaridagi mavzularning bir-biriga mantiqan yaqinligini, tasodifiy deb bo‘lmaydi. Chunki rassom o‘z olamidagi aziz va muqaddas, mo‘tabar manzaralar va qiyofalarni chizar ekan, ulardagi kishi qalbini nurlantiruvchi jilvalarni, ulug‘vorlikni, yillar shamoli iz qoldirgan dardli chizgilarni, abadiyatga eltuvchi lahzalarni ilg‘ab oladi, ularni badiiy tafakkuridan o‘tkazib, sog‘inch ufurib turgan bo‘yoq va qalamchizgilarada ifoda etadi.

Rassom Samarqandning betakror manzarasiyu, tarixdan so‘zlovchi me’moriy obidalarining turli xil ko‘rinishlarini ham mahorat bilan tasvirlagan. Uning “Registon” (2013) nomli asarida rassom palitrasidagi rang surtmalarining xilma-xiligini ko‘ramiz. Tasvirning umumiy olinishi, nur-soyaning berilish jihatlari, kompozitsiya qurilishi, perespektivaning kengligi, hatto asardagi mayda detalning tasvir uchun muhimligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Asar joylashuviga ko‘ra gorizantal hajmda bo‘lib, 130x80 sm o‘lchamga ega, mato moybo‘yoq. Nur-soyaga boy mazkur kartinada Navqiron Samarqand diyorining tarixiy manzarasi aks etgan. Milliy ruh ufurib turgan mazkur asarda uzoq o‘tmishdan so‘zlovchi maqbara, peshtoq, gumbaz va minoralar tasviri, me’moriy obida yon atrofida gavjum maydon va u yerda turli xil yumushlar bilan mashg‘ul milliy liboslarda kiyingan insonlar, ot aravalar tasvirlangan.

Rassom uchun nafaqat shahar manzarasi, balki unda yashovchi qariyalar, momolar ruhiy makon timsolidir. Rassom keksa kishilar portretini ishlar ekan, ularning fe'l-atvori, harakati, shakl-shamoyilidagi o'zgarishlar va o'zaro munosabatlariga e'tibor qiladi. Uning qahramonlari kamsuqum, siniq, o'zini chetga tortadigan, mavhum odamlar emas. Ular hayot sinovlaridan o'tgan, dangal, ochiq fe'l. Buni “Urganchliklar”, “Shahmatchi”, “Ustalar”, “Kulol” portretlarida ham ko'rish mumkin. Otaxon ularning ruhiy makonini o'ziga xos koloritda ifoda etar ekan, bugungi yoshlarimizga ibrat bo'ladigan an'anaviy, milliy, xususiyatlarga alohida e'tibor beradi va ularni ma'naviy boyligimiz sifatida taqdim etadi.

MUHOKAMA

Ataxan Allabergenov o'ziga xos ijod olamiga ega rassomlardan, uning asarlari haqli ravishda tasviriy san'atining portret janridagi yutuqlarini o'zida mujassam etadi. Rassom ijodining asosiy qismini milliy o'ziga xoslik, o'zbek xalqi hayoti, xalqning turmush tazri, kasbi, insonlarning ichki olamini namoyon etadigan portretlariyu-janrli kompozitsiyalarida o'rin egallaydi. Ijodkor nafaqat portretning mahoratli ijrosini balki, tasvirlanuvchining chuqur psixologik holatini, ruhiy to'laqonliligini ochib bera olgan. Rassom tasvirlagan qahramonlar ijodkorning asarlarida yashaydi. Ataxan Allabergenov ijodida turli xil ko'rinishga ega insonlar portretini ishlash keng qamrovlidir. “Ustalar”, “Kulol”, “To'quvchi”, “Xivalik ota”, “Cho'pon”, “Ona”, “Qariya”, “Xivalik ayol”, “Misgar usta”, “Donishmand”, “Shahmatchi”, “Bobo”, “Bola”, “Ayol”, “Xoljon Momo” va boshqa shu kabi personajlarda soda, mehnatkash, qat'iyatli va ochiq xarakterga ega inson obrazlari, tasvirlangan .

Bu qarashlar rassom ijodining “Xoljon Momo” (2000) portretida o'z aksini topgan. Asar 140x94 sm o'lchamda, mato moybo'yoq, joylashuviga ko'ra vertikal hajmda. Yoshi ancha ulug' keksa momo qo'llarini jipslashtirib tizzalariga tayanib o'tirgan holatda tasvirlangan. Qo'llari va yuzlaridagi sezilib turgan ajinlar uning uzoq yillar davomidagi mehnati, mashaqqatlari, turli xil sinovlardan mardonavor

yengib o‘tgan tashivshlariyu, kechinmalardan so‘zlaydi. Momo egnida oddiygina kiyimlar, boshida esa oq ro‘mol. Ro‘mol chetlaridan biroz to‘zg‘igan oq sochlari ko‘rinib turbidi. Momo egnidagi libos ranglarining rassom tomonidan aniq berilishi, keksalik belgisini yanada sezilarli ochib bergan. Asarda momo nigohi tomoshabinga qaratilgan bo‘lib, anchayin o‘ychan. Bu o‘ylar momoning uzoq o‘tmishidan darak. Musavvir tomonidan yaratilgan ushbu “Xoljon momo” porterti talqinida keksa momoning barcha tengdoshlariyu, zaxmatkash xorazmlik ayollarning umumlashma obrazi talqin etilgan.

Rassomning “To‘quvchi” (2004) asari ham yuqorida keltirib o‘tilgan fikirlarimiz isbotidir. Asar mavzu va kompozitsiya jihatdan P.Benkovning “Xivalik qiz” asarini eslatadi. Ammo, Ataxan Allabergenov ijodiga tegishli mazkur “To‘quvchi” asarida yosh jihatdan ancha ulug‘ momo charx yigirib o‘tirgan holati tasvirlangan. Asar vertikal kompozitsiya asosida bo‘lib, umumlashma rangtasvirda ishlangan. Momo keksaligiga qaramasdan haliham mehnatdan to‘xtamagan va o‘z kasbi bilan mashg‘ul. Asardagi ranglar mutanosibliigi rassomning mahoratidan darak. Momo xorazm keksa ayollariga xos kiyinish uslubida, ro‘mol o‘rashi lachak deb nomlanib oppoq rangda, egnida to‘q rangli ayyolar ustki kiyimi, uning ichidan oq rangli ko‘ylak kiygan. Momoning boshi va ko‘krak qismi oq paxta rangida berilgan. Bu-poklik, yorug‘likga ishora. Momo yuz ifodasi qizg‘ish tusda, bu esa uning uzun umri, mashaqqatli mehnatini ifodalaydi.

“Qariya” (2008) portreti 30x20 sm hajimda qog‘oz suv bo‘yoq. Grafik uslubida ishlangan mazkur asarda keksa otaxon ya‘ni, donishmand keksa obrazi tasvirlangan. Otaning yuz qiyofasi aniq ochib berilgan. Keksalik, mo‘ysafidlik ajinlari zohir bo‘lgan otaning nurli yuzida samimiylik ufurib turibdi. Donishmandlik belgisi bo‘lgan soqollari oppoq rangda. Ota lablarida nim tabassum, nigohlari biroz o‘ychan holatda. Donishmand ota egnida oq libos, boshida oq do‘ppi kiygan. Bir qo‘li bilan hasa ushlab o‘tirgan holatda tasvirlangan.

Musavvirning “Kulol” (2002) nomli asarida Xorazm badiiy hunarmandchiligining eng qadimiy turlaridan kulolchilik bo‘lib, asarda usta kukol

mehnat jarayonida gavdalangan. Hunarmand ota o‘zi tomonidan ishlangan mahsulotlarini tekshirish chog‘ida, oldida pishirilgan ko‘zalar, xorazm kulolchilik an‘nalariga xos tarzda ishlangan hamda bo‘yalgan bodiya ushlagan va unga sinchikovlik bilan razm solayotgan usta holati tasvirlangan. Asarda rang surtmalarining keskin qo‘llanilishi, rang gammalarining xilma-xilligi, to‘q va yorqin ranglarning mutanosiblikda ishlatilishi diqqatni jalb etadi. Usta kulol o‘zbek shoyi matosidan tikilgan ko‘rpacha ustida chordana qurgan holda o‘tiribdi. Kiyinish uslubi ham milliylikni talqin etgan. Egnida chopon, beli qiyiqcha bilan bog‘langan, boshiga cho‘girma kiygan holatda tasvirlangan.

XULOSA

Rassom o‘zining boy g‘oyalari, dunyo qarashi, xalqparvarligi va inson tuyg‘ularini ulug‘laydigan asarlari bilan tasviriy san‘at olamida chuqur iz qoldirgan. Ataxan Allabergenov ijodiy faoliyati davomida ko‘plab ko‘rgazmalar qatnashchisi. Xususan, 1987-yil Urganch suratlar galeryasida “Xorazm taronalari” nomli ko‘rgazmasida rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan ko‘rgazma qatnashchisi, 2000-yil Respublikamiz poytaxti Toshkent shahrida O‘zbekiton Badiiy ko‘rgazmalar zalida Xorazm viloyati fan va texnika, qishloq xo‘jaligi, arxitektura, tasviriy san‘at va xalq amaliy san‘atiga bag‘ishlangan katta festivalda Xorazmlik tasviriy san‘at asarlari haykaltaroshlik, xalq ustalari ijodiy ko‘rgazmasi qatnashchisi, 2003 yilda Rossiya elchixonasida ijodkorning shaxsiy ko‘rgazmasi, 2004 yilda esa “Ilhom” teatrida rassomning ko‘rgazmalari tashkil etilgan, 2006 yil avgustda Nukus shahrida, noyabrda Urganchda Ma‘mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan Qoraqolpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati rassomlarining ijodiy ko‘rgazmasi qatnashchisi. Bundan tashqari ijodkor yurtimiz va xorijda tashkil etiladagin ko‘plab festival va ko‘rgazmalarda ishtirok etgan.

Bugungi kunda ijodkorning asarlari yurtimiz va chet ellardagi muzey, galleriyalar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelinadi. Jumladan, Urganch

suratlar galereyasida, Toshkentdagi Tasviriy san’at galereyasida, Xiva shahrida joylashgan “Avaz O‘tar” uy-muzeyi va “Xudoyberdi Devonov” muzeyida, Angliyadagi “Zamon” suratlar galereyasida, Germaniyada xususiy kolleksiyada, bundan tashqari horijiy davlat muzey va galereyalarida, Tretyakov galereyasida, Sankt-Peterburgda o‘nlab teatr dekoratsiyasiga ishlagan ijodiy ishlari saqlanadi.

Ataxan Allabergenov nafaqat ijod olamida o‘z dasxatiga ega bo‘lgan rassomlardan, shu bilan bir qatorda O‘zbekiston tasviriy san’atining yuksalishi borasida jonbozlik ko‘rsatgan ijodkorlardan. Shunday ekan, bu kabi etuk rassomlar ijodini o‘rganish, tadqiqot ishlarini olib boorish hamda kelajak avlodga yetkazishdek ulug‘ vazifani bajarish soha vakillarining vazifasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

QO‘LLANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. ҲАКИМОВ А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Т.: 2010.
2. ҲАКИМОВ А. История Искусств Узбекистана. – Т.: 2018.
3. Jo‘rayev M. O‘zbekistonning yangi tarixi 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Т.: 2000. – 658 b.
4. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар.- Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
5. Oydinov N. Tasviriy san’at tarixi. – Т.: “Ijod” nashriyot uyi, 2007.
6. Qodirova D. XX asr o‘zbek teatri schenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari”. Monografiyasi. – Т.: 2010.
7. Сейсмограф. Искусство Узбекистана эпохи Перестройки. 1985-1995. Выставка-инсталляция. Каталог. 2003. – 21 с.
8. Shihobiddin Muhammad an-Nasafiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti. /Q.Matyoqubov tarjimasi/. – Т.: O‘zbekiston, 2009.-384 b.
9. Avazov S. Rassom dunyosi. //Xorazm haqiqati. 1979.
10. Kobilova F. Rassom Georgiy Brim ijodi. //Tasvir va makon. To‘plam material. – Т.: 2015.

11. Madraimov A. Xorazm san'atkorlari. //Adabiyoti va san'ati. – T.: 1993. – B. 15.
12. Mamatov U.N. Study of three portraits of the great poet of the middle ages, Alisher Navoi. – USE: Oscar Publishing Services, 2023. – ISSN – 2771-2141. – P. 15-20
13. Kasimov K.S. The position of the artist in modern society. – USE: Oscar Publishing Services, 2023. – ISSN – 2771-2141. – P. 10-13
14. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. – USE: American Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. – ISSN (E): 2993-2157 – P. 148-150
15. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. – USE: IJNRAS, 2023. – ISSN: 2751-756X. – P. 179-182
16. Makhmudov B.T. The artist's psychological perception of colors, Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268.
17. Umirzakov R.R. Imagination allows a person to realize many projects. – European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. – ISSN - 2795-8612. – P. 158-161
18. Xo'janiyozov R.Q. O'zbekiston tasviriy san'atida O'rol Tansiqboyev ijodi va faoliyati. – Research and education, 2023. – ISSN: 2181-3191 – B. 78-79.
19. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40
20. Королькова Е.Ф. Инновационный подход в художественном образовании, современные направления декоративно-прикладного искусства, – Research and education, 2023. ISSN: 2181-3191. – P.107-111.
21. Khujaniyozov R.Q. Fine lines Uzbekistan painting art. – Art and design Social Science, 2022. – B. 8-11.
22. Khjaniyozov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. Arts and design, 2024. ISSN: 2660-6844, – B. 18-21.

23. Erkabayeva F.A Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san’atining bugungi kundagi taraqqiyot yo‘li, – Research and education, 2023. ISSN: 2181-3191. – B. 96-100